

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI**

Buranova Sevara Sa'dullayevna

Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi, fanning barcha sohalarini axborotlashtirilishi, o'quv faoliyatini intellektuallashtirilishi, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: video ma'ruzalar, veb-seminarlar, elektron testlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron pedagogik dasturiy vositalar-kompyuter texnologiyalari.

**РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**

Буранова Севара Садуллаевна

Международный Северный университет

Педагогика и психология

аспирант

Аннотация: В данной статье обозначены направления широкого внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в образование, информатизации всех областей науки, интеллектуализации образовательной деятельности, углубления интеграционных процессов, совершенствования инфраструктуры системы образования и ее выделены механизмы управления.

Ключевые слова: видеолекции, веб-семинары, электронные тесты, современные педагогические технологии, Электронные педагогические программно-компьютерные технологии.

**THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION
TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION**

Buranova Sevara Sadullayevna

International Nordic University

Pedagogy and psychology
graduate student

Abstract: In this article, the directions for the wide introduction of modern

information and communication technologies in education, the informatization of all fields of science, the intellectualization of educational activities, the deepening of integration processes, the improvement of the infrastructure of the educational system and its management mechanisms are highlighted.

Keywords: video lectures, web seminars, electronic tests, modern pedagogical technologies, Electronic pedagogical software tools-computer technologies

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar, xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha soha va jabhalar, shu qatorda ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, umumta’lim maktablarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, innovatsion metodlar asosida dars berish sifatini oshirish, o‘quvchi yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish maqsadida maktablardagi informatika xonalaridan maqsadli foydalanish kabi muhim vazifalar amalga tatbiq etib kelinmoqda.

Ta’lim sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalardan foydalanish mumkin, jumladan, elektron kurslar, elektron ta’lim tizimlari, video ma’ruzalar, veb-seminarlar, elektron testlar va boshqalar.¹ Bu vositalardan tashqari, hozirgi vaqtida zamonaviy va ixcham mobil texnologiyalar ham mavjud. O‘quvchilarning mastaqil ta’limini mobil texnologiyalar asosida tashkil etishda birinchi navbatda muayyan vaqt va joyga bog‘lik bo‘lmagan holda ta’lim materiallari o‘rganiladi. Bu sizni o‘rganishingiz kerak bo‘lgan ma’lumotlarni olishga imkon beradi.

“Ta’lim tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak, chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz” Sh.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummiliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta’limni isloh qilish, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, o‘qituvchilik kasbining mavqeini va ta’lim

1. ¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the further development of the Republic Uzbekistan". - /Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. - T., 2017. - P. 39.

sifatini oshirish, farzandlarimizni har jihatdan etuk, intellektual salohiyatlari, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo'la oladigan insonlar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning ifodasini sohada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, rivojlangan davlatlar tajribasi keng qo'llanayotgani, ta'lif-tarbiya jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalaridan oqilona foydalanilayotgani, xalqaro miqyosda ham ta'lif va tajriba almashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgani kabi istiqbolli odimlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan ayni paytda inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'lifni isloh qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. "Yangi O'zbekiston mакtab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida umummilliy ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari e'lon qilindi.

Respublikamizning barcha hududida Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari tashkil etilib, ularga eng malakali mutaxassislar jalb etildi. Shuningdek, mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda, barcha hududda zamonaviy o'quv maskanlari barpo etilmoqda.

Yangi maktablar qurilishi uchun tarixda kuzatilmagan miqdorda mablag' ajratilmoqda. Birgina 2021 yilning o'zida qariyb 876 ta mакtabda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 520 ta mакtabda Investitsiya dasturi, 340 ta mакtabda "Obod qishloq" dasturi asosida, 9 ta mакtab homiyilar, 17 tasi mahalliy byudjet mablag'i hisobidan ta'mirlandi.

Bundan tashqari, joriy yilda 6177 ta mакtabda ta'mirlash ishlari bajarildi. eng quvonarlisi, 42 ta mакtab mutlaqo yangidan qurilib, zamonaviy qiyofaga keltirildi. O'quvchilarning sifatli ta'lif olishi uchun barcha sharoit yaratildi.

Zero, hozirgi kunda ta'lifning asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta'lif tizimida yuqori sifatli axborot texnologiyalarini joriy etib, ta'lif sifatini samaradorligini oshirish va ta'lif jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etishdan iboratdir. Shaxsnинг mukammal shakllanishi uchun ta'lif va tarbiya uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak.

Ayniqsa, bugungi kun talabini bajarish uchun tezkor ma'lumotlarni olish uchun, albatta axborot texnologiya ma'lumotlariga tayanib ish tutamiz. Dunyoviy bilimlarni shaxs tomonidan mukammal o'zlashtirilishi uchun bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalarining o'rni salmoqli bo'lib, bugungi kunda

insonni ushbu texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim, tarbiya jarayoniga yondashish an'anaviy pedagogika sohasida juda yaxshi o'rganilgan va o'z samarasini berib kelmoqda. Bugungi axborotlashgan texnologiyalar jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonda ta'lim, tarbiya sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini, elektron dasturiy vositalarni to'g'ri qo'llash shaxsning mukammal shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.²

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi fanning barcha sohalarini axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Buning natijasida o'quvchining kasbiy bilimlarni puxta egallashiga, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modelllashtirish orqali fan sohasining chuqur o'zlashtirilishiga, o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etishiga, mustaqil faoliyatini kengayishiga, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarini kompyuter texnologiyalarini vositasida taqdim etish holatlari paydo bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kundalik hayotimizda media texnologiyalarning o'rni tobora kengayib bormoqda.

Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o'rinni egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Elektron pedagogik dasturiy vositalar-kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning shakllaridan biri bo'lib, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ta'lim jarayonida ishlatilib kelinmoqda. ³

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi zamonaviy voqelikka to'g'ri yondoshgan holda ta'lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi zarur. Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalishlaridan biridir.

² M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llamma [Qarshi. 2000]

1. ³ Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Manzarov Yu. Khurramovich, Jumayeva Shakhl Suyunovna. The main features of western europe medieval, modern philosophy and philosophical views in the 9th-12th centuries in central asia. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 14, 2020.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalar va o'qituvchilarga elektron kitoblar, onlayn maqolalar, o'quv videolari va interaktiv o'quv platformalari kabi keng ko'lamli o'quv resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moslashtirilgan o'quv platformalari va ilovalari orqali shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini olish imkonini beradi. Yana bir jihatni elektron pochta, chat va video konferentsiya kabi axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari talabalar va o'qituvchilarga masofadan qat'iy nazar bir-biri bilan muloqot qilish va hamkorlik munosabatlarini o'rnatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma [Qarshi. 2000]
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the further development of the Republic Uzbekistan". - /Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan. - T., 2017. - P. 39.
3. Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Manzarov Yu. Khurramovich, Jumayeva Shakhlo Suyunovna. The main features of western europe medieval, modern philosophy and philosophical views in the 9th-12th centuries in central asia. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 14, 2020.
4. Received: 09.04.2020 Revised: 11.05.2020 Accepted: 06.06.2020. 193 p. Манзаров Ю.Х.1, Очилова Н. Как воздействовать на своё отношение к человеку. DOI: 10.24411/2412-8236-2019-11101. Academy. №11(50), 2019 Российский импакт-фактор: 0,19 научно-методический журнал
5. Очилова Н. Youth and environmental education. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS ISJ Theoretical & Applied Science 01(81), 769-771Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 769 p3304.
6. Очилова Н. The role of information technologies in solving spiritual and ethical issues. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242365>.
7. Очилова Н. Ways to absorb the national idea in the youth mind. Journal of dvanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 10 | Oct - 2022 ISSN: 2181-2608